

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Rektor _____ O.Sh.Bazarov
“___” ____ 2022 y.

FIZIK VA KOLLOID KIMYO

FAN DASTURI

Bilim sohalari: **700 000**-Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari

Ta'lif sohasi: **720 000** -Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari

710 000-Muhandislik ishi

Ta'lif yo'naliishi: **60720100**– Oziq-ovqat texnologiyasi (don mahsulotlari)

Qarshi-2022

Fan/modul kodi PHCH1304	O‘quv yili 2022/2023	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 3	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek	Haftadagi dars soatlari 3	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Fizik-kolloid kimyo	60	60	120
<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni umumiy, noorganik, analitik, organik kimyo va fizika fanlaridan olgan bilimlarini yanada mustahkamlash hamda ixtisoslik fanlarini to’liq va chuqur holda o’zlashtirishlari uchun nazariy zamin yaratishdir. Fan neft-gazni qayta ishlash, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa shu kabi boshqa texnologiyalari bo'yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlash salohiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga fan turdosh sanoat texnologiyalarida va ilmiy-tadqiqot ishlarida qo’llaniladigan zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullarining nazariy asoslarini o’rgatadi.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarni tanlangan ta“lim yo’nalishlari amaliyotida uchraydigan jarayon va hodisalarining fizik-kimyoviy qonuniyatlar hamda mexanizmlar yordamida tushuntirish va tahlil qilishga o’rgatish, fanning nazariy masalalari orqali olgan bilimlarini o’quv laboratoriya amaliyotlarini o’tkazish bilan ko’nikma berish, tajribalarni kuzatish va o’lchash, ma“lumotlarni mustaqil ravishda izohlab bera olish, umumlashtirish va tegishli xulosalar chiqarishga o’rgatish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. “Fizikaviy kimyo” fanining vazifasi, maqsadi va tekshirish obektlari.</p> <p>“Fizikaviy kimyo” fanining vazifasi, maqsadi va tekshirish obektlari, rivojlanish tarixi. O’rta Osiyoda fizikaviy kimyo sohasidagi eng muhim izlanishlar va yaratilgan qonuniyatlar. Fanning kimyoviy texnologiyadagi ahamiyati. Asosiy tushunchalar: <i>sistema, termodinamik parametrlar</i>.</p> <p>2-mavzu. Kimyoviy termodinamika. Termodinamikaning birinchi qonuni. Termokimyo. Gess qonuni.</p> <p>Ish, issiqlik, ichki energiya va entalpiya. Issiqlik va ishning molekulyar izohi. Kengayish ishi. Issiqlik sig’imi va uning turlari,</p>				

issiqlik sig’imini haroratga bog’liqligi. Termodinamikaning bиринчи qонуни, унинг vazifasi va turli jarayonlarga tadbiqi. Gess qонуни. Issiqlik effektlari va uning turlari. Reaksiya entalpiyasining haroratga bog’liqligi. Kirxgoff qонуни.

3-mavzu. Termodinamikaning ikkinchi qонуни.

Termodinamika 2-qонунинг асосија вазифаси, математик ифодаси. Termodinamik jarayonlar. Issiqliknı ishga aylanish jarayoni, Karno sikli. Entropiya. Gibbs va Gelmgols energiyalari. Kimyoviy potensial. Klauzius – Klapeyron tenglamasi. Termodinamikaning uchinchi qонуни.

4-mavzu. Kimyoviy muvozanat asoslari.

Kimyoviy muvozanat. Muvozanat konstantasi ifodasini massalar ta“siri qонуни асосида keltirib chiqarish. Muvozanat konstantasining turli ifodalari va ular o’rtasidagi bog’lanish. Muvozanat konstantasining izotерма, izoxora va izobara tenglamalari.

5-mavzu. Kimyoviy reaksiyalar tezligi. Oddiy va murakkab reaksiyalar kinetikasi.

Kimyoviy kinetika. Kimyoviy reaksiyalar tezligi. Reaksiyalarning kinetik jihatdan sinflanishi va kinetik tenglamalar. Reaksiya tartibi va uni aniqlash usullari. Oddiy va murakkab reaksiyalar. Fotokimyoviy va zanjir reaksiyalar.

6-mavzu. Reaksiyalar tezligiga haroratning ta’siri. Aktivlanish energiyasi.

Reaksiya tezligining harorat koeffisiyenti, Vant-Goff va Arrhenius tenglama-lari. Aktiv to’qnashishlar nazariyasi. Aktivlanish energiyasi va uni reaksiya tezlik konstantasi bilan bog’liqligi.

7-mavzu. Kataliz. Gomogen va getrogen kataliz.

Kataliz. Gomogen va getrogen kataliz. Katalitik reaksiyalarning ahamiyati. Katalizatorlar. Katalizator aktivligini oshiruvchi omillar. Promotorlar. Katalitik zaharlanish. Katalizator aktivligini tiklash. Katalizator ta“sir mexanizmini tushuntiruvchi nazariylar. Fermentativ kataliz.

8-mavzu. Kolloid kimyo fanining maqsadi va vazifasi, rivojlanish tarixi. Dispers sistemalar va ularning sinflanishi. Kolloid sistemalarning tayyorlash va tozalash usullari.

Fanning vazifasi, maqsadi, rivojlanish tarixi. Dispers sistemalar va ularning sinflanishi. Kolloid sistemalar olishning dispergasiya, kondensasiya usullari. Kolloid eritmалarni tozalash usullari: *dializ, elektrodializ, ultrafiltrasiya, ultrasentrifugalash*.

9-mavzu. Sathdagi hodisalar. Sirt taranglik tushunchasi.

Sathdagi hodisalar, ularning sinflanishi. Sirt taranglik tushunchasi. Qattiq jism sirtini suyuqlik bilan ho’llanishi, ho’llash chet burchagi. Yung tenglamasi. Ho’llanish jarayonining issiqlik effekti. Adgeziya va koageziya. Kapillyar bosim. Jyuren tenglamasi.

10-mavzu. Adsorbsiya hodisalari. Qattiq jism sirtidagi adsorbsiya. Adsorbsiya nazariyalari.

Sorbsiya, adsorbsiya va absorbsiya, xemosorbsiya, kapillyar kondensatsiya jarayonlari. Qattiq jism yuzasida gazlarni va suyuqlik bug'larining adsorbsiyalanishi. Adsorbsion kuchlar tabiat. Freyndlixning adsorbsiya izotermasi. Lengmyurning monomolekulyar adsorbsiya nazariyasi. Polyanining polimolekulyar adsorbsiya nazariyasi. BET nazariyasi.

11-mavzu. Suyuqlik sirtidagi adsorbsiya. Gibbs tenglamasi. Ionlar adsorbsiyasi. Ionitlar.

Suyuqlik sirtidagi adsorbsiya. Gibbs tenglamasi. Dyuklo-Traube qoidasi. Ionlar adsorbsiyasi. Qattiq modda sirtida eritmardan bo'ladigan adsorbsiya. Ionitlar.

12-mavzu. Kolloid dispers sistemalarning xossalari.

Kolloid zarrachalarning diffuziyasi, Broun harakati, sedimentasiya, kolloid eritmalarining osmotik bosimi. Kolloid sistemalarning rangi. Kolloid eritmarda yorug'lik nurining yoyilishi; Tindal-Faradey effekti. Reley qonuni. Dispers sistemalarni tahlil qilishni optik usullari: ultromikroskop, elektron mikroskop. Rentgenografiya va elektronografiya. Elektroforez va elektroosmos hodisalari. Oqib chiqish va cho'kish potensiallari. Elektroforez yordamida dzeta potensialni aniqlash.

13-mavzu. Liofob zollarni barqarorligi. Kolloid sistemalarning koagulyatsiyasi. Koagulyatsiya tezligi.

Gidrofob zollarning barqarorlik turlari. Gidrofob zollarning agregativ va kinetik barqarorlik sabablari. Barqarorlikning DLFO nazariyasi. Yoruvchi bosimni yuzaga kelishi. Koagulyasiya. Koagulyasiya hodisasini yuzaga keltiruvchi omillar. Koagulyasiya tezligi. Koagulyasiyani tezlatish usullari. Shulse-Gardi qoidasi. Zolning koagulyasiya chegarasi va uni aniqlash. Koagulyasiya to'g'risidagi DLFO nazariyasi.

14-mavzu. Mikrogeterogen dispers sistemalar. Mikrogeterogen dispers sistemalar: ko'piklar, suspenziyalar, aerozollar, emulsiyalar, kukunlar va ularning umumiy tavsifi. Emulsiyalarni olinishi va barqarorligi. Emulgatorlar va ularning sinflanishi.

15-mavzu. Dispers sistemalarning reologik xossalari.

Reologiyaning asosiy tushuncha va qonunlari. Dispers sistemalarning reologik xossalari. Qovushqoqlik. Konsentrangan dispers sistemalar. Gellar va iviqlar. Tiksotropiya hodisasi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kimyoviy termodinamika. Gess qonuniga oid masalalar yechish.
2. Issiqlik effektiga harorat ta'siri qonunlarini o'rganishga doir masalalar yechish.
3. Termodinamikaning 2-qonuni va entropiyani hisoblashga doir

masalalar yechish.

4. Kimyoviy reaksiyalar tezligiga haroratning ta“siri va aktivlanish energiyasini hisoblashga doir masalalar yechish.

5. Adsorbsiya konstantalari qiymatini hisoblashga doir masalalar yechish.

6. Dispers sistemalarning elektrokinetik xossalarini hisoblashga doir masalalar yechish.

7. Dispers sistemalarning barqarorligi va koagulyasiya chegarasini hisoblashga doir masalalar yechish.

Amaliy mashg’ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhgaga bir professor-o’qituvchi tomonidan o’tkazilishi zarur. Mashg’ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o’tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo’llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Laboratoriya mashg’ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya mashg’ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1.Laboratoriya ishlashning xavfsizlik texnikasi

2.Tuzlarning integral erish issiqligini aniqlash.

3.Gomogen reaksiyalarning muvozanat konstantasini aniqlash.

4.Kimyoviy reaksiyalarning tezlik konstantasini aniqlash.

5.Qattiq jism sirtidagi adsorbsiya konstantalari qiymatini aniqlash.

6.Suyuqlik sirtidagi sirt faol moddaning adsorbsion qavat qalinligini aniqlash.

7.Dispers sistemalarni olinishi va dializ usulida tozalash.

8.Zolning koagulyasiya chegarasini aniqlash va Shulse-Gardi qonuniga bo’ysinishligini tekshirish.

Talaba fanning ma“ruza mashg’ulotlaridan olgan nazariy bilimlarini o’quv laboratoriya mashg’ulotlarida mustahkamlaydi. Talaba laboratoriya ishini laborant nazorati ostida bajaradi va hisobotni rasmiylashtirib, fan o’qituvchisiga topshiradi.

V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Fizikaviy kimyo fanini zamonaviy tahlil usullarini o’rgatishdagi hamda kimyo texnologiya sohalarini rivojlantirishdagi o’rni.

2. Kimyoviy va fizikaviy jarayonlarning issiqlik effektlari va uning turlari.

3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish bo‘yicha keys: Hosil bo’lish entalpiyasi ($\Delta H_{h.b.}^{\circ}$) noldan katta, noldan kichik va nolga teng bo’lgan holatlarda birikma mavjud bo’la oladimi?

4. Issiqlik energiyasini ishga aylanishi. Karko sikli. FIK.

	<p>5. Har xil jarayonlarda entropiya qiymatining o'zgarishi.</p> <p>6. Muammoli vaziyatni tahlil qilish bo'yicha keys: Tekshiriluvchi aralashmaning holat diagrammasini tuzish asosida tarkibi aniqlansin. Nomutanosiblik muammosi hal qilinsin</p> <p>7. Geterogen kimyoviy muvozanat.</p> <p>8. Eritmalarning elektr o'tkazuvchanligi.</p> <p>9. Muammoli vaziyatni tahlil qilish bo'yicha keys: Nima uchun elektr o'tkazuvchanlik tajriba asosida o'rganilyotganda o'zgarmas tokdan foydalaniadi?</p> <p>10. Muammoli vaziyatni tahlil qilish bo'yicha keys: Diffuzion potensialni hosil bo'lish sabablari va uni yo'qotish muammolari?</p> <p>11. Muammoli vaziyatni tahlil qilish bo'yicha keys: Kimyoviy kinetikaning kimyoviy texnologiyadagi ahamiyati</p> <p>12. Reaksiyaning tezligi va aktivlanish energiyasi.</p> <p>13. Muammoli vaziyatni tahlil qilish bo'yicha keys: Katalik zaharlanishning salbiy oqibatlari va undan kelib chiqadigan muammolar.</p> <p>14. Kolloid dispers sistemalarning optik xossalarini o'rghanish usullari. Nefelometriyada ishlash.</p> <p>15. Adsorbsiyani oziq-ovqat va kimyo sanoatidagi o'rni.</p> <p>16. Koagulyasiya jarayonini kimyo va oziq-ovqat sanoatlaridagi va atrof-muhitni muhofazasidagi ahamiyati.</p> <p>17. Elektrolitlar ta'sirida bo'ladigan koagulyatsiya.</p> <p>18. Liofil kolloid eritmalar. Tabiiy va sintetik yuqori molekulali moddalar. Polielektrolit YuMB eritmalarining xossalari.</p> <p>19. Ishlab chiqarish chiqindilarini utilizasiya qilishda dispers sistemalarning o'rni.</p> <p>20. Ishlab chiqarish jarayonlarida va atrof muhitni muhofaza qilishda "Kolloid kimyo" fanining o'rni.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3	<p>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • kimyoviy termodinamika qonunlarining ahamiyati; • kimyoviy muvozanat qonunlari; • kimyoviy kinetika asoslari, zanjirli va geterogen, gomogen reaksiyalarning kinetikasi; • mikrogeterogen dispers sistemalar va ularni turlari, yuqori molekulyar birikmalar; • sirt hodisalar termodinamikasi, dispers sistemalarning barqarorligi, suyuq va gazsimon dispers muhitli sistemalarning o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; • qaytar kimyoviy reaksiyalarning unumini oshirish yo'llarini; • tekis yuzalardagi va g'ovakli adsorbentlardagi adsorbsiyani, kapillyar kondensasiyani, dispers sistemalardagi optik hodisalarni;

	<ul style="list-style-type: none"> • kolloid dispers sistemalarni barqarorlashni, koagulyasiyalashni; • YuMBlarning o'rtacha molekulyar massasini aniqlashni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; • fanni o'zlashtirishdan olingen bilimlarni sanoat texnologiyalarida qo'llay olish; • fan bo'yicha asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari va ma'lumot-nomalardan foydalana olish; • qaytar kimyoviy reaksiyalarning muvozanat konstantasini aniqlash; • kimyoviy kinetika asoslariga tayangan holda texnologik rejimlar tuzish; • qattiq-suyuq va suyuq-gaz chegara sirtlarida solishtirma adsorbsiyani qiymatini aniqlash; • gidrofob kolloid dispers sistemalarni tayyorlash va barqarorlash, kolloid zarrachalarni zaryad ishorasini aniqlash, kolloid dispers sistemalarni koagulyasiyalash va koagulyasiya chegarasini aniqlash; • YuMBlarni o'rtacha molekulyar massasini hisoblay olish; • olgan nazariy bilimlarini texnologik jarayonlarga qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishi; • emulsiyalarni tayyorlash va turini aniqlash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i>
4	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg'ulotlar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyiham; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyiham.
5	<p>VIII. Kredit olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sh.P.Nurullayev. Fizikaviy kimyo (chet el o'quv adabiyotlari ma'lumotlari asosida to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri). Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2016. – 384 bet. 2. Sh.P.Nurullayev, A.J.Xoliquov, J.S.Qayumov. Analitik, fizikaviy va kolloid kimyo (Fizikaviy kimyo qismi). Darslik. - T.: Iqtisod- moliya, 2018. – 264 bet.

3. A.S.Sidikov, M.N.Mavlonova. Kolloid kimyo. Darslik. - T.: Fan va texnologiyalar, 2019. – 446 bet.
4. SH.P.Nurullayev, H.S.Talipova va boshqalar. Analitik, fizikaviy va kolloid kimyo (fizikaviy kimyo fanidan amaliy mashg'ulotlar). O'quv qo'llanma. 1-2 tomlar, –T., Navro'z. 2018. – 347 bet.
5. H.S.Talipova, A.S.Sidikov, O.S.Boboqulova, J.S.Qayumov. Fizikaviy kimyodan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar to'plami. O'quv qo'llanma. – T.: Sano-standart, 2015. – 271 bet.
6. H.S.Talipova, J.S.Qayumov, O.S.Boboqulova, N.Sh.Zulyarova. Analitik, fizikaviy va kolloid kimyo (kolloid kimyo qismi) fanidan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. TKTI. 2019. 216 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

7. Raymond Chang, Jonn W.Thoman, JR, Physical Chemistry for the chemical sciences, 2014, Universiry Science Books.
8. Terence Cosgrove. Colloid Science:Principles, methods and applications, 2010
9. Drew Mer. Surfaces, interfaces and colloids. 1999. John Weley and Sons, New York, 492 p.
10. Atkins, Peter W.; de Paula, Julio (2010). Physical Chemistry (9th ed.). [Oxford University Press. ISBN 978-0-19-954337-3](#).
11. SH.P.Nurullayev. Fizikaviy kimyo. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2014. – 496 bet.
12. H.S.Talipova, J.S.Qayumov, N.Sh.Zulyarova. Fizikaviy kimyo fanidan ma"ruzalar matni. O'quv-uslubiy qo'llanma. TKTI. 2018. 391 bet.
13. H.S.Talipova, J.S.Qayumov, O.S.Boboqulova, N.Sh.Zulyarova. Kolloid kimyo fanidan ma"ruzalar matni. O'quv-uslubiy qo'llanma. TKTI. 2019. 403 bet.

Axborot manbalari

14. www.tkti.uz, www.dpo-msu.ru, www.xumuk.ru
15. <http://www.chemistry-chemists.com/fizicheskaya-ximiya>
16. <http://www.chem.msu.su>;
<http://www.xumuk.ru/encyklopedia/1671.html>

7

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'naliishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil "30" 10 dagi 6-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "7" 12 dagi 648 - sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

8	Fan/modul uchun mas'ullar: F.S.Nazarov – QarMII, “Umumiy kimyo” kafedrasи katta o'qituvchisi.
9	Taqrizchilar: S.Sh.Lutfullayev – QarMII, “Kimyoviy texnologiya ” kafedrasи dotsenti A.X.Panjiev – QarMII, “Umumiy kimyo” kafedrasи dotsenti

